



DAVLAT BYUDJETIGA SOLIQ TUSHUMLARINI TA'MINLASHDA SOLIQ NAZORATI TADBIRLARINING O'RNI

Kodirov Aqliddin

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

ORCID: 0009-0007-0518-9972

aqliddin.qodirov@soliq.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat byudjetini barqaror ta'minlashda soliq nazorati tadbirlarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. 2019-2024-yillar davrida soliq organlari tomonidan o'tkazilgan nazorat tadbirlari natijasida undirilgan soliqlar hajmi dinamikasi o'rganilib, soliq nazoratining davlat moliyasini boshqarishdagi fiskal samaradorligi ochib berilgan. Maqolada xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari asosida soliq nazoratining raqamli transformatsiyasi, risk tahliliga asoslangan yondashuvlar hamda profilaktik nazorat mexanizmlarining amaliy afzalliklari yoritilgan. Shuningdek, soliq tekshiruvlarini takomillashtirish, nazorat natijalarini oshkoralik va iqtisodiy tahlil orqali baholashga oid takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari soliqqa oid siyosatni takomillashtirish va byudjet barqarorligini mustahkamlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: soliq organi, soliq to'lovchi, soliq nazorati, soliq tekshiruvlari, davlat byudjeti, soliqlar, fiskal.

РОЛЬ МЕР НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ НАЛОГОВЫХ ПОСТУПЛЕНИЙ В ГОСУДАРСТВЕННЫЙ БЮДЖЕТ

Кодиров Аклиддин

Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение мероприятий налогового контроля в обеспечении устойчивости государственного бюджета. Проанализирована динамика поступлений налогов, взысканных в результате контрольных мероприятий налоговых органов в 2019–2024 годах. Раскрыта фискальная эффективность налогового контроля в управлении государственными финансами. На основе научных взглядов зарубежных и отечественных учёных освещены вопросы цифровой трансформации налогового контроля, риск-ориентированных подходов и профилактических механизмов. В статье предложены рекомендации по совершенствованию налоговых проверок, повышению прозрачности и аналитической оценки их результатов. Полученные выводы имеют важное научно-практическое значение для совершенствования налоговой политики и укрепления бюджетной устойчивости.

Ключевые слова: налоговый орган, налогоплательщик, налоговый контроль, налоговые проверки, государственный бюджет, налоги, фискальный.

THE ROLE OF TAX CONTROL MEASURES IN ENSURING TAX REVENUES TO THE STATE BUDGET

Kodirov Akliddin

Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *This article examines the role and significance of tax control measures in ensuring the stability of the state budget. The dynamics of taxes collected as a result of tax authority inspections during 2019–2024 are analyzed, revealing the fiscal efficiency of tax control in managing public finances. Based on the scientific views of both foreign and domestic scholars, the study highlights the digital transformation of tax control, risk-based approaches, and preventive monitoring mechanisms. The paper proposes recommendations for improving tax audits, enhancing transparency, and applying analytical assessment of audit outcomes. The research findings have essential scientific and practical importance for improving tax policy and strengthening budgetary sustainability.*

Keywords: *tax authority, taxpayer, tax control, tax audits, state budget, taxes, fiscal.*

Kirish.

Jahonda soliq nazorati tadbirlarini samarali tashkil etish orqali soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligiga qat'iy rioya qilinishini ta'minlashga, ularda soliq madaniyati shakllanishiga, soliqlarni barqaror undirilishiga hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, soliq nazorati tadbirlarini kuchaytirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish va davlatlararo soliq to'g'risidagi ma'lumotlar almashinuvi tizimlarini rivojlantirish orqali soliq tushumlarini oshirishga qaratilgan strategiyalar faol amalga oshirilmoqda. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining "Base Erosion and Profit Shifting" tashabbusi doirasida davlatlar o'rtasida soliq ma'lumotlarini avtomatik almashish tizimi joriy qilinmoqda. Bugungi globallashtirish sharoitida iqtisodiyotning raqamlashtirilishi, moliyaviy oqimlarning murakkablashuvi va soliqlardan har xil g'ayriqonuniy yo'llar orqali bo'yin tovlash shakllarining ko'payishi soliq nazoratiga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, korxonalarda soliq nazorati tadbirlarini samarali tashkil etishni hamda uni amalga oshirishda zamonaviy yondashuvlarni qo'llashni taqozo etmoqda.


O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida soliq sohasini raqamlashtirishga, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga, soliq to'lovchilarning huquqiy manfaatlarini himoya qilishga hamda soliq tekshiruvi turlarini unifikatsiya qilishga alohida e'tibor qilinmoqda. Hukumatimiz tomonidan "... soliq tizimini to'liq raqamlashtirish, soddalashtirish va barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, rasmiy sektor — nolegal faoliyatdan afzal va manfaatli bo'lishi uchun barcha zarur sharoitlarni ta'minlash" 2030-yilgacha erishilishi lozim bo'lgan asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilab berilgan. Mazkur maqsad ijrosini ta'minlashda yuridik shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlarda soliq qonunchiligiga rioya etilishi yuzasidan o'tkaziladigan soliq nazorati tadbirlarining samaradorligini oshirish, tadbirkorlik subyektlarining soliq tekshiruvi natijalari yuzasidan qabul qilingan qaror ustidan to'g'ridan-to'g'ri sudga shikoyat qilish huquqini ta'minlash, turli xil g'ayriqonuniy yo'llar orqali soliqlardan bo'yin tovlayotgan soliq to'lovchilarga nisbatan murosasiz choralar ko'rishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni asoslash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Mamlakatda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari, shu jumladan, soliq nazoratini tashkil etishning ayrim masalalari qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Jumladan, mazkur masala bo'yicha ilmiy tadqiqot

olib borgan xorijlik olim Slemrod (2014) “Soliq nazoratining iqtisodiy mohiyatini tahlil qilgan holda, uni soliq tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida e’tirof etadi. Uning fikricha, soliq nazorati – bu fuqarolarning qonuniy soliqlarni to’lashga undovchi chora-tadbirlar majmuasi bo’lib, u axborot yig’ish, audit, monitoring hamda psixologik omillarni ham o’z ichiga oladi. Mazkur yondashuv soliq nazoratining faqat tekshiruv funksiyasi emas, balki soliq intizomini shakllantirishdagi rag’batlantiruvchi va profilaktik ahamiyatini ham namoyon etadi.” – degan fikrlarni ilgari surgan.

Miller (2018) o’zining maqolasida, “Soliq tekshiruvi soliq nazoratining eng samarali shakllaridan biridir. Soliq tekshiruvlari quyidagi (1-rasm) tekshiruvlarga bo’linadi:



1-rasm. Soliq nazorati shakllari to’g’risida xorijiy iqtisodchi olimlarning qarashlari

- soliq idorasida o’tkaziladigan va barcha soliqlar bo’yicha tekshiruvlarni qamrab oladigan tekshirishlar;

- soliq to’lovchining hududiga chiqqan holda o’tkaziladigan va faqat deklaratsiya qilingan soliqni tekshirishni qamrab oladigan tekshirishlarga bo’linadi. Shunga asosanib, nazariy jihatdan soliq nazoratining turli shakllarini tasniflash mumkin bo’lgan asosiy yo’nalishlarni aniqlash mumkin” – ekanligini ta’kidlagan.

Xorijiy iqtisodchi Keenning (2017) ta’kidlashicha, “Soliq nazorati – soliq siyosatining zarur tarkibiy qismi bo’lib, uni takomillashtirish budjet tushumlarini oshirish va soliqdan bo’yin tovlashning oldini olishda asosiy vosita hisoblanadi.”

Tulane universiteti professori, Almn (2011) “Soliq nazorati faqat jarima yoki auditdan iborat emas – bu kompleks tizim bo’lib, fuqarolarni ixtiyoriy ravishda soliqlarni to’lashga undovchi mexanizmlarni ham qamrab oladi.” – deya ta’kidlagan.

Rossiyalik iqtisodchilar Simenko va Bredixina (2022) o’zlarining tadqiqot ishida, “Soliq nazorati bu — soliq tizimining tarkibiy elementi bo’lib, u davlat moliyaviy nazoratining muhim yo’nalishidir. Ular nazoratga sistemali, jarayonli va funksional yondashuvlar bilan qarashadi.” – degan fikrni bayon qilgan.

Gracheva (2013) “Soliq nazoratini davlatning rasmiy vakolatli organlari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy faoliyatini nazorat qilish orqali soliqlarni to’liq va o’z vaqtida undirishni ta’minlovchi vosita sifatida talqin qiladi. U nazoratning maqsadi shunchaki tekshiruv emas, balki qonunbuzarliklarning oldini olish va soliq intizomini

mustahkamlash ekanligini ta'kidlaydi. Soliq nazorati iqtisodiy axborotni tahlil qilish, xavfli soliq to'lovchilarni aniqlash va soliq bazasini kengaytirishga xizmat qilishi kerak." – deya ta'kidlaydi.

Mahalliy tadqiqotchi Yusupov (2020) "Soliq tekshiruvlarini davlat fiskal siyosatining markaziy elementi hisoblanadi. Soliq tekshiruvlarining uchta asosiy ya'ni fiskal, nazorat va tahliliy funksiyalari mavjud." – ekanligini ta'kidlagan.

Shuningdek, Jo'rayev (2023) o'zining ilmiy maqolalarida "Soliq tekshiruvlari ikki asosiy mezon asosida baholanadi:

- maqsadga muvofiqlik;
- samaradorlik.

Har bir tekshiruv aniq risklar va statistik ko'rsatkichlarga asoslangan bo'lishi kerak. Ayniqsa, kichik biznes subyektlariga nisbatan soliq auditi ehtiyotkorlik bilan va faqat zarur hollardagina o'tkazilishi lozim. Shuningdek, tekshiruvlar tugaganidan so'ng, soliq organlari o'z faoliyatining tahliliy natijalarini ochiq e'lon qilishlari kerakligini taklif qiladi — bu orqali jamoatchilik nazorati kuchayadi." – degan fikrlarni ilgari surgan.

Tadqiqot metodologiyasi.


Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik kuzatish, statistik grafiklardan foydalanilgan holda qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, absrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot usullari soliq ma'murchiligini, xususan soliq nazorati tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish samaradorligini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Davlat budjeti mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy moliyaviy instrumenti bo'lib, uning daromad qismini barqaror shakllantirishda soliq tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, soliq nazorati mexanizmlari davlat moliyaviy resurslarini to'g'ri shakllantirish va ularni samarali boshqarishning ajralmas bo'g'ini hisoblanadi. Soliq nazorati tadbirlarining yana bir muhim iqtisodiy asosi bu iqtisodiy adolatni ta'minlashdir. Agar ayrim tadbirkorlik subyektlari soliqlarni to'liq yoki belgilangan muddatda to'lamasa, bu boshqa soliqlarni vaqtida va to'liq hajmda to'lab kelayotgan to'lovchilarga nisbatan nohaqlikdir hamda bunday holatlar sog'lom raqobatni buzadi. Umuman olganda umumiy nazorat tizimi qonun oldida barchaning tenglik tamoyilini ta'minlash orqali adolatli iqtisodiy muhitni yaratish hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida soliq nazoratining asosiy shakllari sifatida soliq tekshiruvlari va soliq monitoringini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Soliq tushumlarini davlat budjetiga barqaror ta'minlashda har ikkala soliq nazorati shakllari soliq organlarining muhim dastagi deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi. Soliq tekshiruvlari odatda 3 xil ko'rinishda o'tkaziladi ya'ni kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi va soliq auditi. Soliq monitoringni soliq tekshiruvlaridan farqli jihat shundaki, ushbu tadbir soliq to'lovchi tomonidan ixtiyoriy tayinlanadi. Ushbu tadbirlar soliq to'lovchilarning moliyaviy faoliyatini tahlil qilish, ularning hisobotlari o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash va yashirin soliq bazasini aniqlashga yo'naltirilgan hisoblanadi.

Soliq nazorati tadbirlarining samaradorligi esa bevosita davlat budjetiga soliq tushumlar hajmida namoyon bo'ladi. Bu esa soliq nazoratining nafaqat fiskal, balki profilaktik va tartibga soluvchi funksiyalarini ham mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi. Jumladan, so'nggi yillarda amalga oshirilgan soliq nazorati tadbirlari natijasida aniqlangan qo'shimcha soliqlar, jarimalar va penya summaları budjet daromadlarining sezilarli qismini tashkil etmoqda. Ushbu ma'lumotlarni quyida keltirilgan 2-rasm orqali ko'rib chiqamiz.



2-rasm. 2019-2024-yillarda soliq organi tomonidan o'tkazilgan soliq nazorati tadbirlari natijasida undirilgan soliq va boshqa to'lovlar hajmi

Yuqoridagi 2-rasmda 2019–2024-yillarda soliq organlari tomonidan o'tkazilgan soliq nazorati tadbirlari natijasida undirilgan soliqlar va budjetga to'langan umumiy soliq tushumlari o'rtasidagi nisbatlar tasvirlangan. Grafikdan ko'rinib turibdiki, mazkur davrda soliq tekshiruvlari orqali undirilgan tushumlar ulushi yildan-yilga o'zgarib borgan. Xususan, 2019–2020-yillarda soliq nazorati tadbirlari natijasida aniqlangan qo'shimcha soliqlar hajmi nisbatan past bo'lib, ular umumiy tushumlarning 20% (2019-y.) va 15% (2020-y.) qismini tashkil etgan. Shu davrda budjetga to'g'ridan-to'g'ri tushgan soliqlar ulushi esa yuqori — mos ravishda 80% va 85% bo'lgan. Bu holatni o'sha yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun soliq tekshiruvlariga maratoriylar berilganligi hamda 2020-yilda pandemiya bo'lganligi sababli soliq tekshiruvlari ma'lum muddatga to'xtatilganligi bilan izohlashimiz mumkin.

2021-yilda esa soliq nazorati tadbirlari samaradorligi keskin oshib, tekshiruvlar natijasida undirilgan soliqlar ulushi 38% ga yetgan, budjetga to'langan umumiy soliqlar esa 62% bo'lgan. Ushbu o'zgarish soliq tekshiruvlariga qo'yilgan maratoriylar yakunlanganligi, soliq organlari faoliyatida risk tahliliga asoslangan tekshiruv usullarining joriy etilishi, jumladan Soliq kodeksining 14 va 15-moddalariga asosan lozim darajada ehtiyotkorlik ko'rmagan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan kameral soliq tekshiruvlari tayinlanishi hamda yashirin aylanmalarni aniqlashga yo'naltirilgan kompleks nazorat choralarining kuchaytirilgani natijasida yuzaga kelganligini asos sifatida ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

2022–2024-yillarda soliq nazoratining barqarorlashuv tendensiyasi kuzatilgan. Tekshiruvlar natijasida undirilgan soliqlar ulushi 2022-yilda 31%, 2023-yilda 34%, 2024-yilda 30% bo'lib, barqaror 30–35% diapazonida shakllangan. Bu esa soliq nazorati tizimi iqtisodiyotdagi real soliq bazasiga moslashib, nazorat mexanizmlarining samarali ishlayotganini anglatadi. Shu bilan birga, budjetga to'g'ridan-to'g'ri tushayotgan soliqlar ulushi (taxminan 65–70%) ham o'z barqarorligini saqlab qolgan.

Ushbu davr mobaynida kuzatilgan o'zgarishlardan quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- soliq nazoratining fiskal roli sezilarli — 2021-yildan boshlab budjet tushumlarining qariyb uchdan bir qismi aynan soliq tekshiruvlari natijasida aniqlangan qo'shimcha majburiyatlar hisobiga to'ldirilgan;

- raqamli nazorat tizimlari samaradorlikni oshirildi. Elektron hisobvara-q-faktura, onlayn nazorat kassa mashinalari va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari soliq nazorati sifatini yaxshilab, yashirin daromadlarni aniqlash imkonini kengaytirdi.

- soliq intizomi bosqichma-bosqich mustahkamlanmoqda. 2019–2020-yillardagi past ko'rsatkichlardan farqli ravishda, 2021-yildan boshlab korxonalar tomonidan soliqlarning o'z vaqtida to'lanishi, hisobot intizomi va soliq madaniyatining oshishi kuzatilmoqda.

- nazorat choralari va ixtiyoriy to'lovlar o'rtasida muvozanat mavjud. 2-rasmdan ko'rinadiki, majburiy undirish hajmlari o'sgan bo'lsa-da, umumiy tushumdagi ixtiyoriy to'lovlar ulushi barqaror saqlanmoqda, bu esa hukumatimiz tomonidan soliq siyosatining to'g'ri yo'nalishda olib borilayotganligi bilan asoslanadi.

Umuman olganda, 2-rasmda keltirilgan ma'lumotlar shuni anglatadiki, 2019–2024-yillar mobaynida soliq nazorati tadbirlari davlat budjetini to'ldirishda muhim fiskal omil sifatida shakllangan. Shu sababli, soliq nazoratining samaradorligini oshirish uchun kelgusida riskga asoslangan yondashuvni takomillashtirish, soliq to'lovchilarning shaffof faoliyatini rag'batlantirish hamda axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2019–2024-yillar mobaynida soliq nazorati tizimida sezilarli o'zgarishlar yuz bergan bo'lib, bu jarayon davlat budjetining daromad qismini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Biroq mavjud natijalarga qaramay, soliq nazorati mexanizmlarini yanada takomillashtirish, nazorat tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda budjet daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlash zarur. Shu nuqtai nazardan, quyidagi takliflar soliq nazoratining yana takomillashishiga o'zining hissasini qo'shadi deb o'ylaymiz:

1. Soliq tekshiruvlarining maqsadli yo'naltirilganligini oshirish.

Soliq nazorati tadbirlari faqat yuqori soliq to'lamaslik xavfi mavjud bo'lgan guruhlariga mansub korxonalar faoliyatida tashkil etilishi, soliq to'lamaslik xavfi past bo'lgan soliq to'lovchilar uchun esa soddalashtirilgan monitoring tizimini qo'llanilishi kerak. Albatta, soliq monitoringida ham soliqlar qo'shimcha hisoblanishi mumkin, ammo bu holatda moliyaviy jarima qo'llanilmasligini inobatga olish lozim.

2. Soliq nazorati natijalarini iqtisodiy tahlil qilish amaliyotini yo'lga qo'yish.

Har bir nazorat tadbiridan keyin aniqlangan qo'shimcha soliqlar hajmini, ularning undirilish ko'rsatkichlarini va budjetga ta'sirini muntazam tahlil qilib borish zarur. Bu nazorat siyosatini strategik jihatdan boshqarish imkonini beradi.

3. Soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini (soliq savodxonligini) oshirish.

Soliq savodxonligini targ'ib qiluvchi onlayn platformalar, mobil ilovalar va ommaviy axborot kampaniyalari orqali aholining soliq intizomini mustahkamlash kerak. Chunki soliq madaniyati yuqori bo'lgan jamiyatda nazorat xarajatlari kamayadi va budjet barqarorligi ta'minlanadi.

4. Soliq nazorati tadbirlarining raqamli transformatsiyasini yanada kengaytirish.

Soliq organlarining ma'lumotlar bazasini yagona analitik platformaga birlashtirish, sun'iy intellekt va "Big Data" texnologiyalari asosida soliq to'lovchilarda xavf tahlilini avtomatlashtirish orqali yuqori tushum tushishi mumkin bo'lgan soliq to'lovchilardan tekshiruvlarni boshlash maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD) — Addressing the Tax Challenges of the Digital Economy – Final Report. OECD/G20 Base Erosion and Profit Shifting Project. <https://www.oecd.org/tax/beps/>

- (Farmon 2023) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "“O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.
- Slemrod, J., & Gillitzer, C. (2014). *Tax Systems*. Cambridge, MA: MIT Press, p. 128.
- Aytkhozhina G., Miller A. (2018) *State tax control strategies: Theoretical aspects* // *Contaduría y administración*. – T. 63. – №2. – P: 25-40.
- Keen, M., & Slemrod, J. (2017). *Optimal Tax Administration*. IMF Working Paper. <https://www.imf.org/en/Publications/WP/Issues/2017/01/20/Optimal-Tax-Administration-44555>
- Alm, J., & Torgler, B. (2011). *Do Ethics Matter? Tax Compliance and Morality*. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0167268111000560>
- Simenko I.V., Bredikhina O.A. (2022) *Comparative analysis of the concept of tax control*. // *Vestnik of Institute of Economic Research*. Vol. 25, - P: 88–93.
- Грачева, Е. Ю. (2013). *Налоговый контроль: теория и практика*. Москва: Юрайт, с. 45.
- Yusupov Sh. Q. (2020). *Soliq nazoratini tashkil etish va uni takomillashtirish yo'nalishlari*. - Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim. №3, 62-b.
- Жураев Д.С. (2023) *Критерии эффективности налогового контроля в Узбекистане*. // *Экономика и право*. №1. – С. 15–19.
- O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023-yil.
- <https://www.gov.uz/oz/soliq> - O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi rasmiy veb-sayti.